
“TOSHOG‘OLIQ” MFYDA HAM ASFALTFLASH BOSHLANDI

□ Aholi turmush farovonligini oshirish masalasiga strategik yo‘nalish sifatida e’tibor qaratilib, so‘nggi yillarda izchil islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda.

❖ Ayniqsa, Davlatimiz rahbarining “2022-2023 yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo‘yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to‘g’risida”gi 408-sonli Qarori mahallalar infratuzilmasini yaxshilanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Qarorga ko‘ra, ko‘plab mahallalarda elektr, suv ta’minoti yaxshilanib, ichki yo’llar asfalt qilinmoqda. Ushbu sa’y-harakatlar natijasida aholiga qulayliklar yaratib berilmoqda.

???? Rishton tumanida ham ichki yo’llarni ta’mirlash maqsadida asfaltlash ishlari jadal sur’atlarda davom etmoqda. 4-sektor hududidagi “Toshog‘oliq” MFYda ham buniyodkorlik ishlari bajarilmoqda.

???? Ushbu mahallaning 500 metrlik ichki yo’llarida asfaltlash ishlari boshlandi. Buning uchun qaror asosida Davlat byujetidan 250 million so‘m mablag’ ajratilgan.

2023-03-10 06:19:49